

Perceptual Ability And Its Development In Primary School Students As A Pedagogical Necessity

Tursunboyeva Kamola Ilhomjon qizi

Andijan State Pedagogical Institute

2nd year basic doctoral student

Email: kamola.tursunboyeva@mail.ru

Tel: +998916717124

Abstract

This article explores the psychological and pedagogical foundations of developing perceptual abilities in primary school students. Perceptual ability refers to the student's capacity to accurately receive, interpret, and consciously analyze information from the external environment, and it plays a crucial role in shaping attention, observation, communication, and creative thinking during the learning process. The article emphasizes the importance of visual, auditory, analytical activities, and self-assessment methods in enhancing these skills.

Keywords: Perceptual ability, perception, primary education, attention, visual perception, auditory activity, Piaget's theory, Gestalt psychology, multimedia presentations, computer-assisted learning, psychological development, didactic materials.

Annotatsiya

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida perseptiv qobiliyatni shakllantirish va rivojlantirishning psixologik-pedagogik asoslari yoritilgan. Perseptiv qobiliyat – bu o'quvchining tashqi muhitdagi axborotni to'g'ri qabul qilish, idrok etish va uni ongli ravishda tahlil qilish qobiliyati bo'lib, dars jarayonida o'quvchining diqqat, kuzatuvchanlik, muloqot va ijodiy tafakkur salohiyatini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Maqolada bu qobiliyatni rivojlantirishda vizual, eshitish, tahliliy faoliyatlar, o'zini-o'zi baholash kabi metodik yondashuvlar muhimligi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: Perseptiv qobiliyat, idrok, boshlang'ich ta'lim, diqqat, vizual sezgi, eshitish faoliyati, Piage nazariyasi, Geshtalt psixologiyasi, multimedia taqdimotlari, kompyuterlashtirilgan o'qitish, psixologik rivojlanish, didaktik materiallar.

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimi o'quvchilarni nafaqat bilim bilan qurollantirish, balki ularning psixologik va kognitiv rivojlanishini ta'minlash vazifasini ham o'z zimmasiga oladi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichi – shaxsning intellektual, ijtimoiy va hissiy asoslarini shakllantiruvchi muhim davr hisoblanadi. Ushbu bosqichda o'quvchilarning atrof-muhitni to'g'ri idrok etish, ma'lumotlarni anglash va ulardan xulosa chiqarish qobiliyatini rivojlantirish, ya'ni perseptiv qobiliyatni shakllantirish dolzarb masalalardan biridir. Perseptiv qobiliyatlar bolaning o'qish, yozish, muloqot qilish, diqqatni jamlash, kuzatuvchanlik kabi ko'nikmalarining poydevorini tashkil etadi. Ushbu maqolada o'quvchilarda perseptiv

qobiliyatni rivojlantirishning nazariy asoslari va amaliy yo'llari ilmiy tahlil etiladi.

Adabiyotlar tahlili. Perseptiv qobiliyat tushunchasi psixologik adabiyotlarda keng o'rganilgan. N.N. Lange o'zining "Irodaviy diqqat nazariyasi"da diqqatning perseptiv holati bilan bog'liqligini ta'kidlaydi. A.R. Luriyaning fikricha, maktabgacha va boshlang'ich yoshdagi bolalarda diqqati hali barqaror emas, bu esa idrok jarayonining shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Shveysariyalik psixolog J. Piaje esa bolaning aql-idrok funksiyalarini sensomotor, preoperatsional, konkret va formal bosqichlarga ajratgan. Psixolog Ergash G'oziyev idrokni sezgidan murakkabroq jarayon deb izohlaydi. Professor R. Niyozmetova esa adabiy

matnni to'laqonli tushunish o'quvchining hayotiy tajribasi va jonli taassurotlari bilan bog'liq ekanligini ta'kidlaydi. Geshtalt psixologiyasi idrokni butunlikda qabul qilish tamoyili asosida tushuntiradi, bu o'quvchilarning ma'lumotlarni mantiqiy bog'lash qobiliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Konstruktivistik yondashuvda esa o'quvchi bilimni faol ravishda quruvchi sifatida qaraladi, bu esa idrok jarayonida mustaqil tahlil va mulohazani talab etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda quyidagi metodik yondashuvlardan foydalanildi:

- Tahliliy-tanqidiy metod – adabiyotlar asosida perseptiv qobiliyatning nazariy asoslari tahlil qilindi;
- Tajriba-sinov metodlari – boshlang'ich sinf o'quvchilarining perseptiv qobiliyatini o'lchash uchun maxsus testlar va kuzatuvlar o'tkazildi;
- Taqqoslash va umumlashtirish – klassik va zamonaviy yondashuvlar asosida amaliy metodikalar solishtirildi;
- Pedagogik kuzatuv – ta'lim jarayonida o'quvchilarning idrok faoliyatlari tahlil qilindi;
- Axborot texnologiyalarini tahlil qilish – multimedia va kompyuter vositalarining ta'siri baholandi.

Tahlillar va natijalar. O'tkazilgan kuzatuvlar va testlar shuni ko'rsatdiki, perseptiv qobiliyatlari yuqori bo'lgan o'quvchilar darsdagi ko'rsatmalarni tez va to'g'ri qabul qiladilar, ko'rgazmali materiallarga tez javob qaytaradilar, mustaqil fikrlashga moyil bo'ladilar. Multimedia vositalari – audio, video, animatsion materiallar yordamida dars o'tilganda, o'quvchilarning diqqat markazi uzoqroq saqlanadi va bilimlarni eslab qolish darajasi oshadi. Tajriba jarayonida PowerPoint taqdimotlar, animatsiyalar va interaktiv savollar orqali o'tkazilgan darslarda o'quvchilarning fikr faolligi va idrok tezligi ancha yuqori bo'ldi. Ko'rgazmali

materiallar bilan birgalikda sezgi a'zolarining ko'proq faollashuvi polisensor idrokni kuchaytiradi. Bunday mashg'ulotlar, ayniqsa, 7-9 yosh oralig'ida katta samaradorlik beradi.

Perseptiv qobiliyat – bu, ongli ravishda amalga oshiriladigan va hali shakllanishning eng yuqori darajasiga chiqmagan idrok qilish qobiliyati. U tashqi olamni va nuhitni sezish, idrok etish bilan birgalikda kuzatuvchanlik mahoratini ham shakllantiradi. O'qituvchining shijoati natijasida rivojlanadi, takomillashadi. Perseptiv qobiliyat bu qisman idrok bilan bog'liq. Ya'ni, sezgi a'zolariga bevosita ta'sir etib turgan narsa-hodisalar obrazlarini kishi ongida bir butun holda aks ettirilishi. Perseptiv harakatlar (lot. regsertio - idrok etmoq) – idrok jarayonining asosiy tuzilishi birligi, bu idrok ob'yektlarini bilib olish va uni xotira obrazlari bilan solishtirishdan iborat. Perseptiv tizim – idrokning muayyan jarayonini ta'minlovchi analizatorlar yig'indisi.

Shveysariyalik psixolog J.Piajening aql-idrok nazariyasi, aql-idrok funksiyalari hamda uning davrlari haqidagi ta'limotni o'z ichiga oladi. Aql-idrokning asosiy vazifalari, moslashish va ko'nikishdan iborat bo'lib, bu uning doimiy vazifalar turkumini tashkil etadi. Muallif, bola aql-idrokini quyidagi psixik rivojlanish davrlariga tasniflaydi:

- 1) sensomotor intellekti – tug'ilgandan 2 yoshgacha;
- 2) operatsiyagacha tafakkur davri – 2 yoshdan 7 yoshgacha;
- 3) aniq operatsiyalar davri – 7, 8 yoshdan - 11, 12 yoshgacha;
- 4) rasmiy operatsiyalar davri.

O'quvchilarning perseptiv qobiliyati – bu atrof-muhitdagi turli signal, ma'lumot va hodisalarni to'g'ri qabul qilish, tahlil qilish va ularning ichki mazmunini anglash qobiliyatidir. Bu qobiliyat ularning dars jarayonidagi muvaffaqiyati, o'zaro munosabatlari va umuman psixologik holatini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Masalan, o'quvchi darsdagi o'qituvchining ifodalarini, qo'llanilayotgan vizual materiallar va boshqa stimullarni idrok etib, ularning mazmunini to'g'ri tushunishi kerak. Agar bu qobiliyat yetarli darajada rivojlanmagan bo'lsa, o'quvchi dars mazmunini noto'g'ri qabul qilishi, diqqatini jamlay olmasligi yoki motivatsiyasi pasayishi mumkin.

O'quvchilarning perseptiv qobiliyatini rivojlantirishda quyidagi jihatlar muhim hisoblanadi:

- diqqatni jamlash – maxsus mashqlar va o'yinlar orqali e'tiborni kuchaytirish;
- vizual va eshitish qobiliyatlarini mustahkamlash – ko'rgazmali materiallardan foydalanish va audio-didaktik vositalarni qo'llash;
- analitik va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish – masalalar va vazifalarni yechishda mantiqiy yondashuvni o'rgatish;
- o'zini-o'zi baholash – o'quvchi qabul qilish jarayonini tahlil qilib, xatolarini aniqlashi va ularni tuzatishga harakat qilishi.

Perseptiv qobiliyat – bu o'quvchining atrofdagi vizual, eshitish va boshqa sezgi organlari orqali kelayotgan ma'lumotlarni to'g'ri qabul qilish, ulardan mazmunli xulosalar chiqarish, shuningdek, ularni tahlil qilib, o'z bilim va tajribasiga moslashtirish imkoniyatidir. Bu qobiliyat o'quvchining dars jarayonida faolligini, muloqot ko'nikmalarini, shaxsiy fazilatlarini shakllanishiga va ijodiy fikrlashiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Geshtalt psixologiyasi, konstruktivizm va boshqa nazariyalar idrok etishning kompleks tabiatini ochib beradi. Ushbu nazariya asosida o'quvchining ma'lumotni qanday qabul qilishi, ularni qanday qayta ishlashi va ulardan qanday xulosalar chiqarishi tushuntiriladi. Misol uchun, Geshtalt nazariyasiga ko'ra, inson atrofdagi ob'ektlarni to'liq va muvozanatli shaklda

qabul qiladi, ularning o'zaro aloqalarini sezadi va shu asosda obraz hosil qiladi.

Psixolog olim Ergash G'oziyevning yozishicha, "Idrok sezgilarga nisbatan murakkab va mazmundor psixik jarayon hisoblanganligi sababli barcha ruhiy holatlar, hodisalar, xususiyatlar, xossalar va inson ongining yaxlit mazmuni, egallangan bilimlar, tajribalar, ko'nikmalar bir davrning o'zida namoyon bo'ladi va aks ettirishda ishtirok etadi" – deb, izohlaydi¹.

Professor R.Niyozmetovanning fikricha, "O'quvchining jonli taassurotlari, uning hayotiy tajribasi – adabiy asarning to'laqonli idrokini shakllantirish asosi" deb, hisoblash joiz. Matnning keyingi tahlillari estetik idrokni chuqurlashtiradi, o'quvchi dunyoqarshini, didini, xarakterini shakllantirishga yordam beradi"².

Har bir pedagogning kasbiy mahoratiga ta'sir etuvchi muhim omillardan biri bu o'z-o'zini tarbiyalashdir. Yangi texnika, usul va texnologiyalarni izlash dolzarbdir. Shuni hisobga olgan holda zamonaviy texnologiyalarni ishda va dars jarayonlarida qo'llash:

– PowerPoint dasturida bolalar bilan ta'lim faoliyati samaradorligini oshirish uchun taqdimotlar yaratish;

– multimedia vositalaridan foydalanish.

Bola uchun qiziqarli bo'lgan material yaxshi singdirilishi hech kimga sir emas. Multimedia taqdimotlari sizga o'quv va taraqqiyot materiallarini jonli qo'llab-quvvatlovchi tasvirlar tizimi sifatida taqdim etishga imkon beradi. Bunday holda, turli xil idrok-tafakkur operatsiyalari ishtirok etadi, bu esa ma'lumotni nafaqat haqiqiy, balki assotsiativ shaklda ham bolalar xotirasida saqlashga imkon beradi.

Bolalarni o'qitish jarayonida kompyuterlashtirilgan didaktik materiallardan foydalanish o'quvchilarning

¹ G'oziyev E.E. Psixologiya. – Toshkent: "O'qituvchi" NMIU, 2008. – 352 b.

² Ниёзметова Р.Х. Узлуксиз адабий таълим тизимида ўзбек адабиётини ўрганиш методикаси. – Тошкент: Фан, 2007. – 216 б.

perseptiv qobiliyatini rivojlantirishda quyidagi afzalliklarga ega:

- ma'lumotlarni polisensor idrok etish;
- multimedialar va proyeksion ekran yordamida o'quvchilarning ko'rish idrokini optimallashtirish;
- audio, video va animatsion effektlarni bitta taqdimotga birlashtirish bolalarning o'quv adabiyotlaridan olgan ma'lumotlarining o'rnini qoplashga yordam beradi;
- sensor sezgi tizimi tomonidan idrok etish uchun qulayroq bo'lgan narsalarni namoyish etish orqali vizual funksiyalarni faollashtirish.

Xulosa. Perseptiv qobiliyat – bu o'quvchilarning o'quv jarayonida axborotni qabul qilish, tahlil qilish va tushunishga oid psixik jarayonlarning asosiy tarkibiy qismidir. Uni rivojlantirishda ko'rgazmali materiallar, sensor mashqlar, diqqatni jamlashga qaratilgan o'yinlar, axborot texnologiyalaridan foydalanish muhim rol o'ynaydi. O'quvchilar perseptiv qobiliyatlarini rivojlantirish orqali o'zlarining darsdagi ishtirokini faollashtiradi, bilimlarni chuqurroq o'zlashtiradi, mustaqil fikrlay boshlaydi. Shu boisdan, har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'quvchilarning individual idrok darajasini aniqlab, mos metodik yondashuvlarni qo'llashi zarur. Bunda axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish orqali zamonaviy va samarali ta'lim muhitini yaratish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- Lange N.N. "Irodaviy diqqat nazariyasi". Moskva, 1903.
- Luriya A.R. "Kognitiv rivojlanish asoslari". Moskva: Pedagogika, 1984.
- Piaget J. "Psychologie de l'intelligence". Paris: Armand Colin, 1947.
- G'oziyev E. "Psixologiya asoslari". Toshkent: O'qituvchi, 1998.
- Niyozmetova R. "Badiiy matnni idrok qilish psixologiyasi". Toshkent: Fan, 2004.

Wertheimer M., Koffka K., Köhler W. "Gestalt Psychology". New York: Liveright, 1949.

Vygotskiy L.S. "O'qitish va psixik rivojlanish". Moskva: Pedagogika, 1978.

Xodjayev N.X. "Boshlang'ich ta'lim metodikasi". Toshkent: TDPU nashriyoti, 2015.

Qodirov A. "Axborot texnologiyalari va ta'lim". Toshkent: Ilm Ziyo, 2020.